

SUN'IY INTELEKTNI HUQUQIY TA'RIFLASHNING KONSEPTUAL MODELLARI VA ULARNING SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHGA TA'SIRI

Sanjar Ilhomovich SHOMURODOV

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat
instituti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: greatsanjar@gmail.com

ORCID: 0009-0007-4518-2353

Аннотация

Maqolada sun'iy intellekt tushunchasiga xalqaro hujjatlar (OECD tavsiyasi, Yevropa Ittifoqining "AI Act" reglamenti, Yevropa Kengashining doiraviy konvensiyasi) hamda AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston qonunchiligida berilgan huquqiy ta'riflar qiyosiy tahlil qilingan.

Muallif tomonidan texnologik neytrallik, funksional yondashuv va strukturaviy sintez mezonlariga tayangan ishchi ta'rif taklif etilgan hamda sun'iy intellektning huquqiy tabiati shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmi bilan o'zaro bog'liqligi asoslantirilgan.

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, huquqiy ta'rif, texnologik neytrallik, funksional yondashuv, shaxsga doir ma'lumotlar, huquq subyektligi.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ ПРАВОВОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЗАЩИТУ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ

Санжар Илхомович ШОМУРОДОВ

независимый исследователь

Институт законодательства и правовой политики при Президенте

Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: greatsanjar@gmail.com

ORCID: 0009-0007-4518-2353

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ правовых определений искусственного интеллекта, закреплённых в международных документах (Рекомендация ОЭСР, Регламент ЕС «AI Act», Рамочная конвенция Совета Европы), а также в законодательстве США, Китая, Великобритании, России, Казахстана и Узбекистана. Мы предлагаем рабочее определение, основанное на критериях технологической нейтральности, функционального подхода и структурного синтеза, и обосновываем взаимосвязь правовой природы искусственного интеллекта с конституционно-правовым механизмом защиты персональных данных.

Ключевые слова: искусственный интеллект; правовая дефиниция; технологическая нейтральность; функциональный подход; персональные данные; правосубъектность.

Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari davlat boshqaruvi, moliya, tibbiyot, transport va axborot-kommunikatsiya tizimlarining ajralmas unsuriga aylandi. Buning oqibatida SIga asoslangan tizimlar tobora ko'proq shaxsiylashtirilgan qarorlar qabul qilishni boshladi. Masalan, kredit skoringi fuqaroning to'lov qobiliyatini baholaydi, biometrik identifikatsiya uning shaxsini aniqlaydi, tavsiya algoritmlari uning xatti-harakatlarini bashorat qilib, reklamalarni moslashtiradi. Bunday qarorlarning har biri shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslanadi va, demak, insonning shaxsiy hayot daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy huquqiga bevosita daxl qiladi. Turkiyalik olim S.Tatar "Mahalliy vakillik organlarining qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan (sun'iy intellektdan) foydalanish imkoniyatlari" maqolasida ta'kidlaganidek, SI tizimlarining davlat hokimiyati organlari faoliyatiga integratsiyasi sof texnik jarayon bo'lmay, boshqaruv tuzilmalari, huquqiy madaniyat va demokratik hisobdorlikni qayta baholashni talab etuvchi normativ-huquqiy jarayondir.

So'nggi yillarda jahon va mahalliy doiralarda SI ni huquqiy tartibga solish jadal institutsionallashtirishni alohida qayd etish zarur. Masalan, 2024-yilda Yevropa Ittifoqining "AI Act" reglamenti va Yevropa Kengashining sun'iy intellekt, inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi qabul qilindi. O'zbekistonda esa «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi» doirasida boshlangan jarayon 2026-yil 21-yanvarda «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunga SI ning rasmiy ta'rifi kiritilishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi [10]. Ayni shu holat milliy qonun chiqaruvchi tanlagan ta'rif modelini tanqidiy baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Zero huquqda ta'rif huquqiy himoya kafolatlari tatbiq etiladigan munosabatlar doirasini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi SIga berilgan huquqiy ta'riflarning konseptual modellarini aniqlash, ularning shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish kafolatlariga ta'sirini baholash hamda milliy qonunchilik uchun metodologik jihatdan asoslangan ishchi ta'rifni taklif etishdan iborat. Shu maqsadga erishish

uchun quyidagi vazifalar belgilandi: SI tushunchasining ilmiy genezisini yoritish; xalqaro hujjatlar va xorijiy qonunchilikdagi ta'riflarni qiyosiy tahlil qilish; O'zbekiston qonunchiligidagi ta'rifning afzallik va zaif jihatlarini aniqlash; SIning huquqiy tabiati va shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash.

SI tushunchasining ilmiy genezisi XX asr o'rtalariga borib taqaladi. A.Tyuring 1950-yilda e'lon qilingan "Computing Machinery and Intelligence" maqolasida mashinaning fikrlash qobiliyatini aniqlashning empirik mezonini («Tyuring testi» nomini olgan sinovni) taklif etgan edi [15]. «Sun'iy intellekt» atamasining o'zi esa 1956-yilda J.Makkarti tashabbusi bilan Dartmut loyihasida ilmiy muomalaga kiritildi [11]. Loyiha ishtirokchilari (M.Minski, A.Nyuell, G.Saymon va boshqalar) sohadagi dastlabki ilmiy munozaralarga asos soldi [1; 4]. R.Benerji 1969-yildayoq SIni yaqin-yaqingacha faqat inson hal qila olgan masalalarni yechishga qodir mashinalarni tahlil va konstruksiya qilish usullari yig'indisi sifatida ta'riflab [2; 13], mazmunan zamonaviy funksional yondashuv unsurlarini oldindan ko'rsatib bergan edi.

SI taraqqiyotini davrlashtirish masalasida adabiyotda yagona yondashuv yo'q. Milliy o'quv adabiyotida T.A.Xo'jaqulov va N.T.Malikova SI rivojini uch bosqichga a) evristik metodlar, b) integral robotlar va d) bilimlarni tasvirlash hamda inson-mashina avtonom tizimlari davrlariga ajratadi [9; 12]. Biroq ushbu tasnif axborot texnologiyalari ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, texnik-muhandislik mantig'iga qurilgan va SIning huquqiy tabiati masalasini qamrab olmaydi. N.J.Nilsson SI tarixini g'oyaviy shakllanishdan mashinali o'rganishgacha bo'lgan besh davrga ajratsa [13; 43], S.Rassell va P.Norvig chuqur o'rganish, katta ma'lumotlar va generativ SI davrini alohida bosqich sifatida qayd etadi. P.Makkordak esa SI g'oyasini qadimgi avtomatlardan to hozirgi o'rganuvchi tizimlarga bo'lgan ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida tadqiq qiladi [12]. N.Bostromning "Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies" ilmiy asarida esa qobiliyat darajasiga ko'ra tasnifi (ANI–AGI–ASI) davrlashtirishni to'ldiradi.

X.Surden SI tizimlarini huquqiy tahlil maqsadida qoidalarga asoslangan tizimlar, mashinali o'rganish va avtonom qaror qabul qiluvchi tizimlarga ajratishni taklif etadi [14]; bunday funksional tasnif muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan avtonomlik darajasining oshishi shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashdagi xavflarni kuchaytiradi va javobgarlik rejimini qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. B.Ya.Koops axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tartibga solishda texnologik neytrallik tamoyilini asoslab bergan, L.A.Baygreyv esa ma'lumotlar himoyasi doktrinasida funksional toifalash konsepsiyasini rivojlantirgan .

O'zbekiston huquqshunosligida SIning huquqiy jihatlari bo'yicha dastlabki ishlanmalar S. Gulyamov, I. Rustambekov, O. Narziyev va A. Xudoyberganov tomonidan tayyorlangan konsepsiya loyihasida aks etgan bo'lib, unda SI katta hajmdagi ma'lumotlarni ("Big Data") tahlil qilishga ixtisoslashgan texnik ishlanma sifatida talqin qilingan [5; 109]. Bu yondashuv funksional-texnologik yo'nalishga yaqin bo'lsa-da, tizimning huquqiy ahamiyatga ega natija yaratish qobiliyatini mezon sifatida to'la qamrab olmaydi. O. O'rinqulov va R. Xudoyberdiyev "O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari" maqolasida biometrik identifikatsiya vositalari orqali shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashni tadqiq etib, sohaviy tartibga solish zaruratini ko'rsatgan. SIning huquqiy maqomi masalasini eng tizimli o'rgangan S.Bozarov doktrinal yondashuvlarni huquq obyekti, yuridik shaxs va «elektron shaxs» yo'nalishlariga ajratib, ularni, asosan, huquqiy javobgarlik subyektligi nuqtai nazaridan tahlil qiladi [3]. Ko'rinib turibdiki, mavjud tadqiqotlarda yo texnik-tarixiy jihat, yo huquqiy javobgarlik muammosi ustuvorlik qiladi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy metod markaziy o'rin tutadi: xalqaro hujjatlar (OECD tavsiyasi, YeI reglamenti, Yevropa Kengashi konvensiyasi) hamda oltita milliy huquq tartiboti (AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston) ta'riflari yagona mezonlar asosida taqqoslandi. Formal-yuridik metod normativ matnlarning tuzilishi va terminologiyasini tahlil qilishda, tarixiy-huquqiy

metod tushunchaning genezisini yoritishda, tizimli-strukturaviy metod esa ta'rif, huquqiy tabiat va himoya mexanizmi o'rtasidagi aloqalarni aniqlashda qo'llanildi.

Tahlilning analitik asosi sifatida uchta metodologik mezon belgilab olindi. Birinchisi, texnologik neytrallik tamoyili: huquqiy ta'rif muayyan algoritm yoki texnik yechimga bog'lanib qolmasligi lozim, aks holda texnologiyaning tez o'zgarishi normaning o'z kuchini yo'qotishiga olib keladi. Ikkinchisi, funksional yondashuv: tizim nima ekanligi orqali emas, qanday vazifalarni bajarishi orqali ta'riflanishi kerak. Uchinchisi, strukturaviy sintez mezon bo'lib, u SI ni algoritmlar, ma'lumotlar va hisoblash infratuzilmasidan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida qarashni nazarda tutadi; dastlabki ikki tamoyilni birlashtiruvchi mazkur sintetik mezon bizning analitik ishlanmamiz hisoblanadi.

Xalqaro maydonda keng e'tirof etilgan ta'rif Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tavsiyasida berilgan bo'lib, unga ko'ra, SI berilgan maqsadlar asosida kiruvchi ma'lumotlardan foydalanib prognozlar, tavsiyalar yoki qarorlarga ta'sir etuvchi natijalarni ishlab chiqaradigan mashinaga asoslangan tizimdir. Ushbu ta'rifning asosiy afzalligi uning texnologiyaga bog'lanmaganligida. Yevropa Ittifoqining "AI Act" reglamenti ayni mantiqni rivojlantirib, SI ni kiruvchi ma'lumotlar asosida prognoz, tavsiya yoki qarorlar shakllantirib, jismoniy yoxud raqamli muhitga ta'sir ko'rsatuvchi natijalarni ishlab chiqaradigan mashinaga asoslangan algoritmik tizim sifatida belgilaydi. Yevropa Kengashining doiraviy konvensiyasi esa tizimlar joylashtirilgandan keyin turli darajadagi avtonomlik va moslashuvchanlikka ega bo'lishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

AQSHda SI ning yagona qonuniy ta'rifi "Milliy sun'iy intellekt tashabbusi to'g'risida"gi akti orqali berilgan bo'lib, unda mashina asosli tizimning inson belgilagan maqsadlar doirasida real yoki virtual muhitga ta'sir etuvchi bashoratlar, tavsiyalar va qarorlar ishlab chiqarish qobiliyati mezon qilib olingan. Xitoy umumiy ta'rif berishdan tiyilib, sektoral-mazmuniy yo'lni tanlagan. 2023-yilgi vaqtinchalik qoidalar faqat matn, tasvir, ovoz va video mazmun yaratuvchi generativ SI xizmatlarini qamrab oladi. Buyuk Britaniya esa na umumiy ta'rif, na

maxsus qonun qabul qilmasdan, tartibga solish vakolatini sohaviy regulyatorlar (ICO, CMA, Ofcom) zimmasiga yuklagan.

MDH davlatlari orasida esa tubdan farqli yondashuv shakllangan. Rossiya Federatsiyasida SI ta’rifi 2019-yilgi milliy strategiyada berilgan bo’lib, unda SI insonning kognitiv funksiyalariga taqlid qilish imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmui sifatida talqin etiladi [7]. Qozog‘istonning 2024–2029-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi SI sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishni alohida yo‘nalish sifatida ajratgan bo‘lsa-da, ta’riflashda texnologik jarayonni tavsiflash bilan cheklanadi [8]. O‘zbekistonda dastlab “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi”da berilgan ta’rif [29] 2026-yil 21-yanvarda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunga deyarli aynan ko‘chirildi: unga ko‘ra SI – insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish, shu jumladan mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmuidir [13]. Tahlil etilgan ta’riflarning umumlashgan manzarasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Sun’iy intellektga berilgan huquqiy ta’riflarning qiyosiy tavsifi

Hujjat / huquq tartiboti	Ta’rif yondashuvi (model)	Asosiy mezon
OECD tavsiyasi (2019, 2024-y. tahririda)	Funksional-neytral	Kiruvchi ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish va natija ishlab chiqarish
YEI “AI Act” reglamenti (2024)	Funksional-neytral	Prognoz, tavsiya yoki qaror orqali jismoniy yoxud raqamli muhitga ta’sir
Yevropa Kengashi doiraviy konvensiyasi (2024)	Funksional-neytral	Joylashtirilgandan keyingi avtonomlik va moslashuvchanlik
AQSH (15 U.S.C. § 9401)	Funksional-neytral	Inson belgilagan maqsadlar doirasida bashorat, tavsiya, qaror ishlab chiqarish
Xitoy (2023-y. vaqtinchalik qoidalar)	Sektoral-mazmuniy	Generativ mazmun (matn, tasvir, ovoz, video) yaratish
Buyuk Britaniya	Regulyatorlararo (ta’rifsiz)	Qonuniy ta’rif yo‘q; sohaviy regulyatorlar vakolati

Rossiya (2019-y. strategiya)	Antropomorfik	Insonning kognitiv funksiyalariga taqlid
Qozog‘iston (2024-y. konsepsiya)	Texnologik-tavsifiy	Texnologik jarayonni tavsiflash
O‘zbekiston (2026-y. qonun)	Antropomorfik	Insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid

Qiyosiy tahlil huquqiy ta’riflashning ikkita konseptual modeli mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchisi, funksional-neytral model (OECD, YEI, Yevropa Kengashi, AQSH) bo‘lib, u tizimni ichki tuzilishidan qat’i nazar, xulosa chiqarish va muhitga ta’sir etish qobiliyati orqali belgilaydi. Ikkinchisi, antropomorfik model (Rossiya, O‘zbekiston) bo‘lib, unda markaziy mezon sifatida inson aqliga, uning bilim va ko‘nikmalariga taqlid olinadi. O‘zbekiston ta’rifidagi “insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid” formulasi Rossiya strategiyasidagi “kognitiv funksiyalarga taqlid” qolipi bilan konseptual jihatdan mushtarak bo‘lib, bu antropomorfik yondashuvning MDH huquqiy an’anasiga xos umumiy andoza ekanidan dalolat beradi. Bunday andozaning ildizini insonni huquqiy tafakkur markaziga qo‘yuvchi an’anaviy yondashuvdan izlash mumkin.

Antropomorfik modelning amaliy-huquqiy xavfi quyidagida namoyon bo‘ladi. Xususan, inson aqliy faoliyatiga taqlid qilmaydigan, biroq aniq qarorlar qabul qilib, huquqiy oqibatlar tug‘diradigan tor vazifali avtomatlashtirilgan tizimlar, masalan, kredit skoringi yoki biometrik identifikatsiya algoritmlari, milliy ta’rif doirasidan chetda qolishi mumkin. Bunday holda ular SIga nisbatan nazarda tutiladigan maxsus talablardan va, eng muhimi, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish kafolatlari tizimidan tashqarida qoladi. Holbuki, aynan shu turdagi tizimlar fuqarolarning huquqiy maqomiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

SIni tartibga solish bilan ma’lumotlar himoyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni Rossiya tajribasi yaqqol ko‘rsatadi. Moskva shahrida SI uchun eksperimental huquqiy rejim o‘rnatgan 2020-yilgi federal qonun qabul qilinishi barobarida qonun chiqaruvchi “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunni qayta ishlashning huquqiy asoslariga (6-modda) va maxsus toifadagi ma’lumotlarga (10-modda) oid normalarini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi [6]. Demak, SIni huquqiy

tartibga solishga qaratilgan ilk amaliy urinish ham shaxsga doir ma'lumotlar himoyasining o'zak normalariga daxl qilmasdan amalga oshirilishi mumkin emasligini tasdiqladi.

Yuqoridagi tahlil va belgilangan uch metodologik mezon asosida quyidagi ishchi ta'rifni taklif etamiz: sun'iy intellekt – raqamli ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish orqali qarorlar shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lgan, inson ishtirokining turli darajalarida yoki mustaqil faoliyat yuritadigan hamda jismoniy shaxsning huquq va erkinliklariga nisbatan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi natijalarni yuzaga keltiradigan algoritmik tizim. Mazkur ta'rif, birinchidan, texnologik neytrallikni saqlaydi, chunki u muayyan texnik yechimga emas, xulosa chiqarish qobiliyatiga tayanadi; ikkinchidan, inson ishtirokining turli darajalarini qamrab oladi; uchinchidan, “inson aqliga taqlid” mezonini kengroq va huquqiy jihatdan aniqroq bo'lgan huquqiy ta'sir mezonini bilan almashtiradi.

Ta'rifni belgilash SIning huquqiy munosabatlardagi tabiatini aniqlashni taqozo etadi. Zamonaviy huquq doktrinasida ustuvor qarash SIning huquq subyekti emas, huquq obyekti sifatida talqin etadi. Zero klassik huquq subyektligi iroda erkinligi, manfaat va javobgarlikni anglash qobiliyatini talab qiladi. Milliy huquqshunoslikda S. Bozarov SIga inson bilan teng maqom berishga qat'iy qarshi chiqib, bunga SIga insonga xos fiziologik va ruhiy xususiyatlarning mavjud emasligi hamda uning kognitiv qobiliyatlari hozircha cheklanganligini asos qilib ko'rsatadi [3]. Shu bilan birga, doktrinada SIga oddiy ashyo sifatida qarash yetarli emasligi, uning avtonom va moslashuvchan xususiyatlari tufayli uni “sui generis” (o'ziga xos turdagi) obyekt sifatida e'tirof etish g'oyasi ham ilgari surilgan [4; 237]. Bunday yondashuv tizimning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini huquqiy jihatdan hisobga olish imkonini beradi, ammo unga huquq subyektligi baxsh etmaydi.

Huquq subyektligi masalasi xalqaro miqyosda ham jiddiy muhokama qilingan: Yevropa Parlamentining 2017-yil 16-fevraldagi rezolyutsiyasi eng avtonom robotlar uchun istiqbolda “elektron shaxs” maqomini joriy etish imkoniyatini o'rganishni taklif etgan edi. Doktrinada ushbu g'oyaning turli

talqinlari, S. Bekning “elektron shaxs” konsepsiyasi va J.-E.Shirmerning nemis huquqidagi “qisman huquq layoqati” (Teilrechtsfähigkeit) yondashuvi, ilgari surilgan. Biroq yuridik shaxs konstruksiyasi mulkiy alohidalikka asoslanishi haqidagi qarashdan kelib chiqilsa, mustaqil mulkiy javobgarlik bazasiga ega bo‘lmagan SIga nisbatan “elektron shaxs” fiksiyasi O‘zbekiston sharoitida o‘zini oqlamaydi.

Tadqiqot natijasida SIning huquqiy tabiati bilan shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmi o‘rtasidagi bog‘liqlik uch jihatda namoyon bo‘lishi asoslandi. Birinchidan, SIning obyekt sifatidagi tabiati ma’lumotlar nazoratchisi kim ekanini, ya’ni konstitutsiyaviy himoya majburiyati kimning zimmasiga yuklanishini belgilaydi: tizim obyekt ekan, u qayta ishlagan ma’lumotlar uchun javobgarlik undan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘ladi. Ikkinchidan, huquq subyektligining mashinaga emas, insonga tegishliligi avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish sharoitida shaxsning o‘z ma’lumotlari ustidan nazorat huquqini saqlab qoladi. Uchinchidan, ta’rifning funksional-neytral yoki antropomorfik bo‘lishi himoya doirasini belgilaydi: antropomorfik ta’rif inson aqliga taqlid qilmaydigan avtomatlashtirilgan tizimlarni chetda qoldirib, himoya doirasini asossiz toraytiradi.

O‘tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, SIni huquqiy ta’riflashda jahon amaliyotida ikkita konseptual model shakllangan: xalqaro hujjatlar va yetakchi yurisdiksiyalar funksional-neytral modelga, MDH davlatlari, shu jumladan O‘zbekiston, antropomorfik modelga tayanadi. Xalqaro tendensiya funksional-neytral yondashuv foydasiga rivojlanmoqda.

Ikkinchidan, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan antropomorfik ta’rif inson aqliy faoliyatiga taqlid qilmaydigan, ammo huquqiy oqibat tug‘diruvchi avtomatlashtirilgan tizimlarni ta’rif doirasidan chetda qoldirish xavfini yaratadi. Bu esa shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish kafolatlarining asossiz torayishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, ushbu xavfni bartaraf etish maqsadida qonunchilikdagi ta'rifni funksional-neytral model yo'nalishida takomillashtirish, xususan, "insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid" mezonini "raqamli ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish va huquqiy ahamiyatga ega natija yaratish" mezoni bilan almashtirish maqsadga muvofiq. Bunga qadar esa shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni har qanday avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlariga nisbatan tatbiq etilishini ta'minlovchi norma bilan to'ldirish lozim.

To'rtinchidan, SI hozirgi rivojlanish bosqichida huquq subyekti emas, huquq obyekti (zarur hollarda sui generis obyekt) sifatida qaralishi kerak. Bu u qayta ishlaydigan shaxsga doir ma'lumotlar uchun javobgarlikni ma'lumotlar nazoratchisi sifatidagi jismoniy va yuridik shaxslar zimmasida saqlab qoladi. Mazkur yondashuv kelgusida ma'lumotlar nazoratchilarining konstitutsiyaviy majburiyatlari tizimini ishlab chiqish uchun zaruriy nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekqulov J.Sh., Ibragimov I. Sun'iy intellekt asoslari: ma'ruzalar matni. – Qarshi: QarMII, 2023.
2. Бенерджи Р. Теория решения задач: Подход к созданию искусственного интеллекта. – Москва: Мир, 1972.
3. Bozarov S.S. Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik: yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
4. Гринь С.Н. Эмансипация роботов: элементы правосубъектности в конструкции искусственного интеллекта // Бизнес. Общество. Власть. – 2018. – № 1 (27). – С. 233–242.
5. Гулямов С.С., Рустамбеков И.Р., Нарзиев О.С., Худойбергенов А.Ш. Проект концепции Республики Узбекистан в области развития искусственного интеллекта на 2021–2030 годы // Yurisprudensiya.
6. О проведении эксперимента по установлению специального регулирования в целях создания необходимых условий для разработки и

внедрения технологий искусственного интеллекта в городе федерального значения Москве: Федеральный закон от 24.04.2020 г. № 123-ФЗ. Lex.uz

7. О развитии искусственного интеллекта в Российской Федерации: Указ Президента Российской Федерации от 10.10.2019 г. № 490 (вместе с «Национальной стратегией развития искусственного интеллекта на период до 2030 года»). Lex.uz

8. Об утверждении Концепции развития искусственного интеллекта на 2024–2029 годы: Постановление Правительства Республики Казахстан от 24.07.2024 г. № 592. Lex.uz

9. Хо‘jaqulov T.A., Malikova N.T. Sun’iy intellekt: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.

10. “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги қонунга сунъий интеллектга оид нормалар киритилди. UzA: <https://uza.uz/uz/posts/axborotlashtirish-togrisidagi-qonunga-suniy-intellektga-oid-normalar-kiritildi> 821609

11. McCarthy J., Minsky M.L., Rochester N., Shannon C.E. A Proposal for the Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligence. – Hanover: Dartmouth College, 1955.

12. McCorduck P. Machines Who Think: A Personal Inquiry into the History and Prospects of Artificial Intelligence. – 2nd ed. – Natick: A.K. Peters, 2004.

13. Nilsson N.J. The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

14. Surden H. Artificial Intelligence and Law: An Overview // Georgia State University Law Review. – 2019. – Vol. 35, № 4. – P. 1305–1337.

15. Turing A.M. Computing Machinery and Intelligence // Mind. – 1950. – Vol. 59, № 236. – P. 433–460.